

MOLIYAVIY NAZORATNI AMALGA OSHIRISH USLUBIYOTI

Nurmuxamedov Sirojiddin Rajabovich,

O‘zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi magistranti

Annotatsiya: ushbu maqolada byudjet tashkilotlarida moliyaviy nazorat amalga oshirishning uslubiyoti tadqiq etilgan.

Kalit so‘zlar: byudjet, byudjet mablag‘i, byudjet tashkiloti, moliyaviy nazorat, moliyaviy javobgarlik.

ISSUES OF IMPROVING FINANCIAL CONTROL IN BUDGET ORGANIZATIONS

Nurmuxamedov Sirojiddin Rajabovich,

Master's student of Banking and Finance Academy of Uzbekistan

Annotation: in this article, the methodology of financial control in budget organizations is studied.

Keywords: this article examines the necessity, importance and mechanism of implementation of financial control in budget organizations.

Moliyaviy nazorat – bu faoliyat yurituvchi xo‘jalik sub‘yektlarining moliyaviy muomalalarini o‘rnatilgan qonun-qoidalar doirasida amal qilinishini ta‘minlovchi ularning samaradorligini tahlil qiluvchi va ularni kelgusida takomillashtirish bo‘yicha takliflar ishlab chiquvchi mas‘ul organlarning aniq maqsadga yo‘naltirilgan faoliyati. Moliyaviy nazoratning maqsadi – bu shunchaki faqat nazorat emas, balki uning maqsadi ahvolni to‘g‘rilash choralarini ko‘rish, ayrim hollarda aybdorlarni javobgarlikka tortish, yetkazilgan zarar uchun tovon undirib olish yoki kelgusida bunday buzilishlarning oldini olish yoxud kamaytirish imkoniyatiga ega bo‘lish uchun imkoni boricha dastlabki bosqichda qabul qilingan standartlardan chekinishlarni va qonun qoidalarning buzilishlarini oldini olish, moddiy resurslarning samaradorligini oshirish va tejab sarflanishini aniqlashdan iboratdir.

Moliyaviy nazoratning ahamiyati shundan iboratki, uning yordamida birinchidan, davlat va jamoat tashkilotlari, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, fuqarolar tomonidan o‘z moliyaviy faoliyatlarida huquqiy tartibga rioya etilishini kuzatib borish; ikkinchidan, amalga oshirilayotgan moliyaviy harakatlarning iqtisodiy asoslanganligi va samaradorligini, bu harakatlarning davlat oldida turgan vazifalarga muvofiq kelishini tekshirish orqali amalga oshiriladi. Shunday qilib, moliyaviy nazorat moliyaviy faoliyatni amalga oshirish paytida qonunchilikka rioya etish, harakatlarni maqsadga muvofiqligini ta‘minlashning muhim vositasi bo‘lib xizmat qiladi.

Bozor iqtisodiyotiga o‘tish jarayonida davlat moliyaviy nazoratning maqsad va vazifalari, turlari va shakllari tubdan o‘zgardi. Endi u faqatgina jazolash maqsadida emas, balki davlatning o‘z vazifalarini bajarish uchun zarur bo‘lgan mablag‘larning to‘liq to‘planishi va byudjet mablag‘laridan maqsadga muvofiq samarali xarajat qilinishini nazorat qilish maqsadida maslahat va ko‘rsatmalar berish kabi vazifalarni

bajarmoqda. Bugungi kunda moliyaviy nazorat tizimi o‘z tarkibida nazorat qiluvchilar va nazorat qilinuvchilar bilan birga nazoratning turlari, shakllari va usullarini ham jamlaydi.

Davlat moliyaviy nazoratining mohiyatini ochib berishi uchun bir qator holatlarni hisobga olmoq lozim:

1. Moliyaviy nazorat davlat hokimiyati va mahalliy o‘z-o‘zini boshqarish organlarini faoliyatining bir shakli, ko‘rinishi sifatida namayon bo‘ladi.

2. Moliyaviy nazorat ma‘lum darajadagi moliyaviy ishlab chiqarish munosabatlarini boshqarish va tartibga solish shaklida amalga oshiriladi.

3. Moliyaviy nazoratning ta‘sirchanligi uni moliyaning boshqa barcha funksiyalari bilan o‘zaro bog‘likda amalga oshirilgandagina ta‘minlanadi.

4. Moliyaviy nazorat xo‘jalik subyektlari va aholi tomonidan me‘yoriy-huquqiy hujjatlarga rioya qilinishini ta‘minlash maqsadida amalga oshiriladi.

Nazorat - taftish tadbirlarini o‘tkazish samaradorligiga bog‘liq bo‘lgan nazoratning yanada muhim elementi nazorat sub‘ektlari hisoblanadi (ya‘ni yuqori kasbiy malakaga ega tekshiruvchi shaxslar, taftishchilar, inspektorlar, auditorlar va h.k). Moliyaviy huquq iqtisodiy sub‘ektlarni moliyaviy intizomga rioya qilmaganliklari uchun javobgarlik chegarasini belgilaydi, chunki ma‘muriy, byudjet-soliq qonunchiligini buzganlarga moddiy-moliyaviy ta‘sir etish choralarisiz nazorat oldiga qo‘yilgan vazifalarni bajarish bo‘yicha yuqori natijalarga erishishning iloji yo‘q.

Davlat nazorati tizimi yaxlit holatda qator elementlardan iborat:




1-rasm. Davlat moliyaviy nazorati tizimi elementlari¹

Moliyaviy nazoratni amalga oshiruvchi tashkilotlar davlat moliyaviy nazorati sub‘ektlari hisoblanadi. Davlat moliyaviy nazorati iqtisodiyotning turli bo‘g‘inlarining iqtisodiy faoliyatidagi yangi hodisalarni yoritib beradi, ushbu faoliyatni takomillashtirish maqsadida uning qonunchiligini belgilaydi.

¹ Muallif tomonidan tayyorlangan

Mahsulot ishlab chiqarish, taqsimot, ayirboshlash va iste'molini qamrab olgan ijtimoiy takror ishlab chiqarishning barcha bosqichlarida moliyaviy nazorat qarama-qarshiliklar va ularni jamiyat tomonidan tartibga solish maqsadida ishlab chiqarish kuchlari va ishlab chiqarish munosabatlarini o'rganadi. Ushbu yirik doirada aynan ular nazorat ob'ekti hisoblanadi.

Ishlab chiqarish sohasida ishlab chiqarish kuchlari va ishlab chiqarish munosabatlarini nazorat qilgan holda moliyaviy nazorat, insonning shaxsiy mehnati, mehnat predmeti va vositalarini o'z ichiga oluvchi maqsadga muvofiq faoliyati sifatida ijtimoiy mehnatdan samarali foydalanishi, uning amaldagi nazorat subyekti, nazorat tamoyillari, nazorat texnologiyasi, nazorat usullari, nazorat obyekti to'g'risida ma'lumot bazasi, nazorat ob'ekti, nazorat predmeti qonunchilik, me'yoriy-huquqiy xujjatlarga mos kelishini aniqlaydi. Moliyaviy nazoratni amalga oshiruvchi tashkilotlar davlat moliyaviy nazorati subyektlari hisoblanadi.



2-rasm. Davlat moliyaviy nazorati mexanizmi²

Davlat moliyaviy nazorati obyekti – bu Davlat byudjet, davlat mulki, tabiiy resurslar yoki soliqqa tortish, eksport va import bo'yicha biror-bir imtiyozlardir. Davlat moliyaviy nazorati iqtisodiyotning turli bo'g'inlarining iqtisodiy faoliyatidagi yangi hodisalarni yoritib beradi, ushbu faoliyatni takomillashtirish maqsadida uning qonunchiligini belgilaydi.

Xususan, respublika va mahalliy darajalardagi byudjet va byudjetlararo munosabatlari tekshiriladi. Korxonalar va tashkilotlar darajasida jonli va ashyoviy mehnat sarflarining samaradorligi, asosiy fond va mablag'lardan foydalanish tekshiriladi. Shunday qilib, moliyaviy nazorat predmetiga iqtisodiyot amal qilishini ta'minlovchi takror ishlab chiqarish jarayonining barcha tarkibiy qismlari va qonuniy me'yoriy asos kiritiladi.

² Нуриддинова В., Шарапова М., Молиявий нazorat. Дарслик. Т. Иқтисод-молия. 492 б.

Xususan, respublika va mahalliy darajalardagi byudjet va byudjetlararo munosabatlari tekshiriladi. Korxonalar va tashkilotlar darajasida jonli va ashyoviy mehnat sarflarining samaradorligi, asosiy fond va mablag'lardan foydalanish tekshiriladi.

Moliyaviy huquq iqtisodiy subyektlarni moliyaviy intizomga rioya qilmaganliklari uchun javobgarlik chegarasini belgilaydi, chunki ma'muriy, byudjet-soliq qonunchiligini buzganlarga moddiy-moliyaviy ta'sir etish choralarisiz nazorat oldiga qo'yilgan vazifalarni bajarish bo'yicha yuqori natijalarga erishishning iloji yo'q.

Davlat moliyasini boshqarishda foydalaniladigan davlat moliyaviy nazoratining bosh maqsadi davlat xazinasiga resurslarni tushurishni maksimalashtirish va davlat boshqaruv xarajatlarini minimallashtirishdan iborat.

O'zbekiston Respublikasi Budjet Kodeksining 170-moddasida keltirilishicha “Davlat moliyaviy nazorati budjet to'g'risidagi qonun hujjatlarining moliyaviy nazorat ob'ektlari tomonidan buzilishi hollarini aniqlash, bartaraf etish va unga yo'l qo'ymaslik maqsadida davlat moliyaviy nazorat organlari tomonidan amalga oshiriladi”.



3

Davlat moliyaviy nazorati nazorat organlari tomonidan yillik reja va ayrim hollarda rejadan tashqari holatlarda amalga oshiriladi.

Rejadan tashqari davlat moliyaviy nazoratini amalga oshirishga quyidagilar sabab bo'ladi:

- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining yoki O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari;

- davlat moliyaviy nazorat organiga budjet to'g'risidagi qonun hujjatlari buzilganligi faktlari to'g'risida ma'lumotlar kelib tushishi.

qonuniylik va mustaqillik, shuningdek moliyaviy nazorat natijalarining ishonchliligi va xolisligi tamoiyllari asosida amalga oshiradi.

Mamlakatimiz Budjet kodeksida davlat moliyaviy nazoratining quyidagi turlari e'tirof etilgan:

³ O'zbekiston Respublikasi Budjet Kodeksining 171- moddasi asosida tayyorlangan

Dastlabki nazorat — moliyaviy operatsiyalar bajarilguniga qadar g‘aznachilik bo‘linmalari va moliya organlari tomonidan amalga oshiriladigan;

Joriy nazorat — moliyaviy operatsiyalar bajarilishi jarayonida g‘aznachilik bo‘linmalari, moliya organlari va davlat soliq xizmati organlari tomonidan amalga oshiriladigan;

Yakuniy nazorat — moliyaviy operatsiyalar bajarilganidan so‘ng vakolatli davlat moliyaviy nazorat organlari tomonidan amalga oshiriladigan nazorat

4-rasm. Davlat moliyaviy nazoratining quyidagi turlari⁴

Davlat moliyaviy nazoratini amalga oshirishda moliyaviy nazoratning taftish, tekshirish, shu jumladan budjet to‘g‘risidagi qonun hujjatlarining avvalgi taftishda yoki tekshirishda aniqlangan buzilishi hollarini bartaraf etish yuzasidan nazorat tartibidagi tekshirish va o‘rganish shakllaridan foydalaniladi.

Davlat moliyaviy nazorat organlari nazorat o‘tkazish jarayonida nazoratning bir nechta usullaridan foydalanadi:

a) hujjatlarni tekshirish hajmiga qarab:

➤ yoppasiga nazorat — tekshirilayotgan davr uchun barcha buxgalteriya, moliya, statistika, bank hujjatlari va boshqa hujjatlarni nazorat qilish;

➤ tanlov asosidagi nazorat — muayyan davr uchun buxgalteriya, moliya, statistika, bank hujjatlari va boshqa hujjatlarning ayrim qismlarini nazorat qilish;

b) nazoratning maqsadga yo‘naltirilganligi va predmetiga qarab:

➤ kompleks nazorat — moliyaviy nazorat ob‘ektining muayyan davr uchun moliyaviy-xo‘jalik faoliyatining barcha yo‘nalishlarini nazorat qilish;

➤ mavzuli nazorat — moliyaviy nazorat ob‘ektining muayyan davr uchun ayrim masalalar bo‘yicha faoliyatini nazorat qilish;

O‘zbekiston Respublikasi Budjet Kodeksining 28-bobida budjet to‘g‘risidagi qonun hujjatlarini buzish holatlari aks ettirilgan.

uyidagilar budjet intizomini buzish holatlari deb hisoblanadi:

✓ Davlat budjeti, davlat maqsadli jamg‘armalari budjetlari va budjet tashkilotlarining budjetdan tashqari jamg‘armalari mablag‘larini ularni olish (ulardan foydalanish) shartlariga muvofiq bo‘lmagan maqsadlarga yo‘naltirish;

✓ mehnatga haq to‘lash bo‘yicha belgilangan razryadlarga, lavozim maoshlari, ustamalar, ish haqiga qo‘shimchalar va boshqa to‘lovlar miqdorlariga rioya etmaslik;

✓ budjetdan moliyalashtiriladigan muassasalar va tashkilotlarga ish haqi,

⁴ O‘zbekiston Respublikasi Budjet Kodeksi asosida tayyorlangan

pensiyalar, nafaqalar, stipendiyalar va ularga tenglashtirilgan boshqa xarajatlarni to‘lash uchun pul mablag‘lari berilishini, shuningdek pensiyalarni yetkazib berishni amalga oshiruvchi muassasalarga pul mablag‘lari berilishini banklarning rahbarlari va boshqa mansabdor shaxslari tomonidan asossiz kechiktirish.

Quyidagilar smeta-shtat intizomini buzish holatlari hisoblanadi⁵:

✓ noto‘g‘ri ma‘lumotlar asosida va normativlarga nisbatan oshirib ko‘rsatilgan budjetdan ajratiladigan mablag‘larni xarajatlar smetasiga kiritish;

✓ xodimlarning belgilab qo‘yilgan cheklangan umumiy soniga, xodimlarning toifalari o‘rtasidagi o‘zaro nisbat normativlariga, namunaviy shtat normativlariga rioya etmaslik;

✓ budjet tashkilotlarining budjetdan tashqari jamg‘armalarini shakllantirish va ulardan foydalanish tartibiga rioya etmaslik;

✓ tarifkatsiya ro‘yxatlarini tuzishning belgilangan tartibi va normativlariga rioya etmaslik.

Davlat moliyaviy nazoratining ob‘ekti sifatida davlat mablag‘larini ishlatish va shakllantirish bilan bog‘liq bo‘lgan xo‘jalik tashkilotlari sub‘ektlarining faoliyati jarayonida vujudga keladigan barcha pul munosabatlari tushuniladi.

Davlat moliyaviy nazorati davlat hokimiyati organlarining hamda mahalliy o‘z-o‘zini boshqarish organlarining huquqiy normalari bilan tartibga solinadigan davlat moliyaviy resurslarining shakllanishi, taqsimlanishi, maqsadga muvofiq va samarali ishlatilishi ustidan, shuningdek, davlat va mahalliy mulkdan qonuniy tarzda foydalanish ustidan nazorat qilish yuzasidan moliyaviy huquq normalari bilan tartibga solinadigan maqsadli faoliyatdir. Bu faoliyatning asosiy maqsadi nazorat qilinadigan ob‘yektlar faoliyatidagi kamchiliklarni topish va mansabdor shaxslarni jazolashdan iborat bo‘lib qolmasdan, balki bu kamchiliklarning oldini olish, ularga yo‘l qo‘ymaslik, ogohlantirishdan iboratdir.

Davlat moliyaviy nazorati byudjet to‘g‘risidagi qonun hujjatlarining moliyaviy nazorat ob‘yektlari tomonidan buzilishi hollarini aniqlash, bartaraf etish va unga yo‘l qo‘ymaslik maqsadida davlat moliyaviy nazorat organlari tomonidan amalga oshiriladi.

O‘zbekiston Respublikasi Hisob palatasi, O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va Moliya vazirligi va uning tasarrufidagi vakolatli organlar davlat moliyaviy nazorat organlaridir. Davlat byudjetining va davlat maqsadli jamg‘armalari byudjetlarining daromadlari qismi bo‘yicha davlat moliyaviy nazorati berilgan vakolatlar doirasida davlat soliq xizmati organlari tomonidan amalga oshiriladi.

O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Iqtisodiyot va Moliya vazirligi, viloyatlar va tumanlar hokimliklari boshqarmalari va bo‘limlari, davlat sug‘urta idoralari, shuningdek, ularga qarashli davlat korxonalar, muassasalari va tashkilotlari O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va Moliya vazirligining yagona tizimini tashkil etadi. Respublikasi Iqtisodiyot va Moliya vazirligi o‘z tizimiga kiruvchi korxonalar, muassasalar va tashkilotlar faoliyatini to‘g‘ridan-to‘g‘ri yoki o‘zi tashkil etadigan organlar orqali muvofiqlashtiradi va yo‘naltiradi.

⁵ O‘zbekiston Respublikasi Budjet Kodeksining 188 moddasi, O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2013 yil, 52-l son

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Malikov T. Haydarov N. Budget daromadlari va xarajatlari. O‘quv qo‘llanma, Toshkent:“IQTISOD-MOLIYA. 2007.
2. Malikov T, Kobulov K. Models of market economy formation and Interaction of fiscal policy. International Journal of Economic Growth and Environmental Issues-ISSN.:2321-6247.
3. Маликов ТС. Молия-хўжалик юритувчи субъектлар молияси. Ўқув қўлланма. Т.: IQTISOD-MOLIYA. 2009:254-7.
4. Malikov T, Byudjet HN. O‘quv qo‘llanma. Toshkent:“Iqtisod-moliya. 2008;84.
5. N Khaydarov. International experience of the development of tourism in Uzbekistan. Интеграция. Эволюция. Устойчивость: пути развития социально-экономических систем. 2021
6. Xaydarov N. Soliqlar va soliqqa tortish masalalari. O‘quv qo‘llanma. Toshkent: Akademiya. 2007.
7. N Khaydarov. Agricultural Development in Uzbekistan: Agricultural Reforms versus Transboundary Water Issues. Developing Country Studies. ISSN, 2015
8. Юлдашева Н.В Бабаева Ш.С. Специфика организации государственной финансовой поддержки субъектов малого бизнеса в Республике Узбекистан. Интернаука, 2022
9. Ўроқов УЮ. Қишлоқ хўжалиги субъектларини солиқ имтиёзлари орқали рағбатлантириш. Иқтисодиёт ва таълим. 2015;12.
10. Yunusovich, O‘roqov Uchqun. "Abduazimova Farzona Axmadqul qizi. Davlat maqsadli jamg‘armalarining mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishdagi ahamiyati.“. Science and Education” Scientific Journal/ISSN (2022): 2181-0842.
11. Urokov UY, Tursunova ZA. Actual issues in the management of external debt. Science and Education. 2022;3(12):1023-9.
12. U Yu O‘roqov, NM Anvarov. Mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishda byudjet-soliq siyosatining ahamiyati. - BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ..., 2022
13. Уроков У. Узбекистон Республикасининг бюджет кодекси: мохияти, ахамияти ва афзалликлари. "Молия" журнали. 2014.
14. Мамаджанов И, Топаров К, Ўроқов У, Файбуллаев О. Ўрта муддатли бюджет. Наманган шаҳар бюджети мисолида. Услубий қўлланма.
15. Yunusovich, O‘roqov Uchqun, Moyliyev Murod Baxtiyorovich, and Muzaffarov Muhammadjon Maxmud o‘g‘li. "Mamlakat investitsiya jozibadorligini oshirish orqali xalqaro kapitalni jalb qilish masalalari.“. Science and Education” Scientific Journal/ISSN (2022): 2181-0842.
16. Ўроқов, У., И. Иргашев, and О. Файбуллаев. "Фуқаролар иштирокидаги маҳаллий бюджет." (2022).
17. UY O'roqov, JA Yomg'Irov. Mahalliy byudjetlar barqarorligini ta'minlash masalalari - Central Asian Research Journal for Interdisciplinary ..., 2022
18. U O‘roqov, ZAQ Tursunova. O‘zbekistonda davlat tashqi qarzini samarali boshqarishda davlat qarziga xizmat ko‘rsatish kafolat jamg‘armasining o‘rni - Science and Education, 2022
19. Уроков УЮ. К, ишлоқ хўжалиги субъектларини солиқ имтиёзлари орқали рағбатлантириш. Иқтисодиёт ва таълим. 2015;12.
20. УЮ Ўроқов. Давлат харидлари тизимини такомиллаштиришнинг асосий йўналишлари. Ustozlar uchun, 2024
21. U Yu O‘roqov. Davlat xaridi - O‘quv qo‘llanma. Т.:«Nihol print» ОК, 2022
22. Urokov, U. Y. (2018). Public procurement system: yesterday and today.". Market, money and credit" magazine, 8.
23. U Urokov. Peculiarities of implementation of public procurement in Uzbekistan through the agreement procedure. Journal of economics and business management, 2023
24. U Urokov. The importance of procurement models in the effective organization of public procurement. - IMRAS, 2023